

## TALABALARDA IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Rasulova Nozigul Abdivaxid qizi**

*Andijon davlat pedagogika inistituti  
magistrant talabasi*

**Anotatsiya:** *insonning kompetensiyalarni egallashi natijasi unda individual sifatlarning rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, bu fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda qurish zaruratini ko'rsatadi. Shuning uchun ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi mazmunini insonning individualligi konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarurdir. Kompetensiyalarni samarali egallash shartlaridan biri, inson individual sifatlari barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qilish, shuning uchun biz ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda talaba-yoshlar individual xususiyatlariga murojaat etdik va maqolamizda yoritib berdik.*

**Kalit so'zlar:** *faol fuqarolik, "komponent", "kompetensiya", kompetentli yondashuv, asosiy kompetensiya, ob'yektiv komponent, individual xususiyat.*

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CIVIC COMPETENCE AMONG STUDENTS

**Rasulova Nazigul Abduvahid kizi**

*Master's student of Andijan State Pedagogical Institute*

**Abstract:** *In this article, the result of a person's acquisition of competencies directly depends on the development of individual qualities, which shows the need to build citizenship competence taking into account the individual characteristics of students. Therefore, it is necessary to consider the content of socially active citizenship competence from the perspective of the concept of human individuality.*

**Keywords:** *active citizenship, "component", "competence", competent approach, core competency, component objects, individual trait.*

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ

**Расулова Назигул Абдувахид кизи**

*Магистрант Андижанского государственного педагогического института*

**Аннотация:** В данной статье результат приобретения человеком компетенций напрямую зависит от развития индивидуальных качеств, что показывает необходимость формирования гражданской компетентности с учетом индивидуальных особенностей учащихся. Следовательно, необходимо рассматривать содержание социально активной гражданской компетентности с точки зрения концепции человеческой индивидуальности.

**Ключевые слова:** активная гражданская позиция, "компонент", "компетенция", компетентный подход, базовая компетенция, объекты компонента, индивидуальная особенность

## KIRISH

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi O'zbekiston Respublikasida "2030 yilgacha Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da milliy ta'lim tizimini yangi natijaga erishishga yo'naltirishda "universal bilimlar, ko'nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy mas'uliyat tajribasi, ya'ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar" sifatida xizmat qiladi deb ta'kidlangan[1].

Ta'limda pedagogik tushuncha sifatida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish yuzasidan, bizning yondashuvimizni ko'rib chiqish doirasida avval, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridagi ilmiy imkoniyatlarga murojaat etish orqali tahlil etamiz. Bu esa bizga talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini turli metodologik asoslangan texnologiyalarini yanada chuquroq o'rganishga imkon beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu yondashuvlar asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan uzviy bog'liqlikda jamiyati qurish va adolatli jamiyat to'g'risida Markaziy Osiyo, MDH davlatlari va xorij olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosan sharq uyg'onish davri olimlari IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlarini haqidagi g'oyalar Abu Nasr Farobiy[2], Abu Ali Ibn Sino[2], Nizomulmulk[7], Amir Temur[4], respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov[6; 6-10-b.], B.X.Xodjayev[10; 82-b.], xorijiy mamlakatlar olimlaridan Dj.Raven[8; 281-b.], B.Gershunskiy[5; 512-b.], Dj.Raven[9; 253-b.]va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Izlanishlarimiz natijasida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini, rivojlantirish omillari, asosiy tushunchalari ularning ijtimoiy ahamiyati va mamlakatimiz taraqqiyotida har bir shaxsning mas'uliyat, individual xususiy sifatlarini shakllantirish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish mumkinligini maqolamiz mazmunida yoritib berdik.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Abu Nasr Al-Farobiy[2; 190-b.] (870–950) ning “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobining aforizmlari” asarlarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hokimyat haqidagi qarashlar nazariy asoslangan. Abu Nasr Farobiyning fikricha adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boshqaradi, u ma’naviyat, adolat yetakchisi bo’lishi, o’z shaxsiy fazilatlarini bilan qat’iy talablarga javob berishi kerak deya fikr bildiradi.

Abu Ali Ibn Sino[3; 104-b.] (980–1037) fikricha ijtimoiy munosabatlar odamlar o’rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir deb qaraydi. Ibn Sino “iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlarga ko’ra tengsizlik – inson ijtimoiy faolligi sababi hisoblanadi” deb ta’kidlaydi. Ideal davlat qurish esa jamiyat aholisining ma’naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog’liq. Uning ta’kidlashicha, ma’naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Nizomulmuluk[7; 98-b.]ning “Siyosatnoma” asarida “amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralashtirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarni muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to’g’risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir” degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilishining adolatli tartibotlariga e’tibor berganligidan dalolatdir.

Sohibqiron Amir Temur[14; 81-b.]ning quyidagi fikrlari hozirgi zamon bilan hamnafasdir: “Tajriba, - deb yozadi u, menga shuni ko’rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o’zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo’lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o’xshatish mumkin. Shuning uchun men o’z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o’zim qat’iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim”. Sohibqiron Amir Temur fikricha, davlat boshqaruvida eng muhim qonuniyat – qonun ustuvorligi. “Qat’iy tartib va qonunlarga amal qilishim baxt-saodatim kaliti bo’ldi”. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkomlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi buyuk Temur adaolatli va fozil boshqaruvga alohida e’tibor qaratganligini ko’rsatib turibdi.

Zamonaviy jamiyatda mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan talaba egallashi mumkin bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka, amaliy faoliyat tajribasi va kompetensiyalarni o’zlashtirish natijasida faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish o’z dolzarbligicha qolmoqda.

N.A.Muslimov[6; 6-10-b.] «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining etimologik tahliliga to’xtalar ekan. Kompetensiyani – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo’llay olish, kompetentlik tushunchasini, “shaxsning muayyan ta’lim yo’nalishi yoki mutaxassisligi bo’yicha olgan bilim, malaka va ko’nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyati” deb, ifodalagan.

B.X.Xodjayev[10; 82-b.] “kompetentli yondashuv doirasida ta’limning uchta an’anaviy elementi bo’lgan bilim, ko’nikma va malakaga yana uchta unsurlar: amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya, kompetentlik” ning ilgari surilishi haqida to’xtalib o’tgan.

Xorijiy mamlakatlarda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda «kompetensiya» kategoriyasi kiritilganidan boshlab, kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini ajratish ustida asoslar yaratildi. Mashhur britaniyalik psixolog Dj.Raven[8; 281-b.] nomi bilan bog’laydilar, u o’zining «Zamonaviy jamiyatda kompetentlik» nomli ishida kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining pedagogik-psixologik jihatlariga to’xtalib o’tgan.

Dj.Raven[9; 253-b.] kompetensiyaning mazmun-mohiyatini tadqiq etar ekan, «motivasiya», «maqsadni belgilash», «xulq» tushunchalariga tayanadi va ular o’z navbatida inson qadri, uning axloqiy majburiyatlariga bog’liq bo’ladi. U kompetensiyalarning 37 ko’rinishini ajratib ko’rsatgan bo’lib, ular samarali xulqning tashkiliy elementlari hisoblanadi.

Ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishini zamonaviy bosqichida kompetentlik va kompetensiyalar tizimi orqali hosil qiluvchi tushunchalarni aniq ifodalashga urinishlar amalga oshiriladi.

#### **NATIJARLAR**

Yuqorida keltirib o’tilgan ma’lumotlarni umumlashgan holda mazkur jadvalda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari tahlilini alohida ifodaladik:

##### **1.1-jadval**

##### **Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining etimologik tahlili va tavsifi**

№	Muallif, manba	Kompetentlik ?	Kompetensiya ?
	N.A.Muslimov Kasb ta'limi o'qituv- chilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish?	shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati.	bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaf-faqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish.
	<i>Frumin I.D.</i> nima uchun javobgar? Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini yangilash- ning tabiiy bosqichi sifatida?	haqiqiy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan ta'lim natijasining yangi turi.	umumlashgan predmetli ko'nikmalar, amaliy predmetli ko'nikmalar va hayotiy malakalar
	<i>Xutorskoy A.V.</i> Asosiy va predmetli kompetensiyalarni loyihalash texnologiyasi?	muayyan predmetlar va jarayonlarga nisbatan talab etiladigan va ularga nisbatan sifatli samarali faoliyat uchun zarur o'zaro bog'liq shaxs sifatleri majmui (bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyat usullari)	ma'lum sohada samarali faoliyat uchun zarur o'quvchi-ning ta'limiy tayyorgarligiga avvaldan belgilangan ijtimoiy talab (me'yor).

Taqdim etilgan tahlil shundan dalolat beradiki, hozirgi vaqtga qadar kompetensiya va kompetentlik atamalarini bir xil tushunish hanzugacha mavjud emasligi ko'rinadi.


Yuqoridgi atama izlanuvchilar tomonidan turlicha tushunishning tahlili asosida, bu tushuncha insonning biror-bir alohida sohadagi keng vazifalar doirasini samarali yechish qobiliyati va tayyorgarligi sifatida talqin qilish bo'yicha xulosaga kelish mumkin. Shu tariqa, kompetensiya talabning pedagogik-psixologik rivojlanishiga, uning individual sifatlariga bog'liq sub'yektiv tushuncha sifatida qaraladi va bu kompetensiyani individual sifatning barcha sohalarini rivojlantirish orqali shakllantirish muammosini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

## MUXOKAMA

Demak, kompetensiya tushunchasini shaxsga qo'yiladigan, unga muayyan faoliyat sohasidagi hayotiy vazifalarni samarali yechishda imkon beradigan ob'yektiv talab sifatida qaraymiz va talabada ma'lum kompetensiyalarning mavjudligi zaruriy ob'yektiv komponent deb, hisoblaymiz. Talaba obyektiv komponenti pedagogik-psixologik rivojlanishning muayyan darajasini tushunish kerak, chunki talaba individual sifatlarining barcha sohalarini rivojlantirishdagi kompetensiyalarni egallash mumkin.

«Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya» tushunchasini, uning tuzilishi va uning tarkibiga kiruvchi kompetensiyalar nomenklaturasini aniqlash ham murakkab vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ijtimoiy faol, barkamol talaba - yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mutaxassislar oldida turgan dolzab masaladir. Chunki, mamlakatda demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, fuqarolik huquq va majburiyatlarining butun majmuini faol, mas'ul va samarali amalga oshirish orqali, o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga imkon beruvchi tayyorgarlik qobiliyatiga ijtimoiy faol fuqarolik deyiladi.



**1.3-rasm. Talabalar ega bo'lishi kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalar tarkibi**

## XULOSALAR


Shunday qilib ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga keng ta'rif berishga va uni shakllantirish, rivojlantirish sharoitlarini aniqlashga uringan bo'lib, u ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini demokratiya, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish sharoitlaridagi hayot bilan bog'liq murakkab vazifalarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, yosh - avlod tarbiyasida qadriyat, faol fuqarolik pozitsiyasiga yo'naltirish, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining asosiy komponenti hisoblanib, muayyan xulq va faoliyatning uzluksizligi sifatida xizmat qiladi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish sharoitlari orasida ob'yektiv (ta'lim muassasasining demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta'lim va tarbiya texnologiyalari va b.q.) hamda sub'yektiv (ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi va pedagoglarning shaxsiy sifatleri) sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining mazkur mezonlarni aniqlashtirish, jumladan ijtimoiy

kompetensiyalarni rivojlantirish bilan qiyoslash va ularda baholash mezonlari va vositalarini aniqlashni talab etadi.

**Bizning fikrimizcha ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining o'zlashtirish natijasida birinchi navbatda muayyan qadriyatlar muhim o'rin tutadi**



**1.4-rasm. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini o'zlashtirish omillari**

1.4-rasm. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini o'zlashtirish omillari

Shu tariqa, shaxs fuqarolik jihatidan kompetent inson ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faollik ko'rsatishni bilish, keng doiradagi ijtimoiy rollar: saylovchi, saylanuvchi, iste'molchi, ishbilarmon, hamkor va boshqa rollarni o'ynashni bilishi, fuqarolar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishida namoyon bo'ladi.

Inson fuqarolik sohasida o'ynashi kerak bo'lgan ijtimoiy rollar, samarali faoliyat shart-sharoitlari va ijtimoiy kapitalni to'plashning miqdori shunchalik beqiyoski, shaxsning fuqarolik jamiyati hayotida ishtirok etish muammosiga kompleks(yaxlit) nuqtai nazar sifatidagi kompetensiyaviy yondashuv vaziyatidan fikr bildirish zarurdir.

Demak, amaliy tadqiqot ishlarining tahlili "ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – bu inson o'z hayot faoliyatida, fuqarolik jamiyatining faol a'zosi bo'lishi, uning shakllanishi va rivojlanishida ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasidir" deb ta'kidlashga asos bo'ladi.

Insonning kompetensiyalarni egallashi natijasi unda individual sifatlarning rivojlanishiga bevosita bog'liq bo'lib, bu fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda qurish zaruratini ko'rsatadi. Shuning uchun ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi mazmunini insonning individualligi konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish zarurdir. Kompetensiyalarni samarali egallash shartlaridan biri, inson individual sifatlari barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qilish, shuning uchun biz ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda talaba - yoshlar individual xususiyatlarini takomillashtirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim degan xulosaga keldik.

**ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // PF-5847-son.
2. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri.-Toshkent.: A.Qodiriy nashriyoti. 1993 y.: 190-b.
3. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. 1-k. Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev). – T.: Xalq merosi, 1995. – 104 b.
4. Amir Temur tuzuklari.-T .:G'ofur G'ulom nashriyoti,1996, 81-bet
5. Гершунский Б. Философия образования XXI: В поисках практико ориентированных концепций.-М.: Пед. общ. России., 2002 г.- 512 с.
6. Muslimov N.A muallifligi asosida yozilgan. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" nomli Monografiyasi. Fan va texnologiya.: 2013 y. 6-10 b
7. Nizomulmulk Siyosatnoma.- T.: Adolat,1997 yil.: 98-b
8. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация .// - М., «Когито-Центр», 2002. – 281-296 с.
9. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация .// - М., «Когито-Центр», 2002. - 253-258 с.
10. Ходжайев В.Х. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish.: ped.fan.doktori...dis.avtorefarati.–T., 2016. – 82 b.